

TIBBIY YORDAMNI TALAB DARAJADA KO'RSATMASLIKNI SUD-TIBBIY JIHATLARI

D.M. Sirliboev

Sh.E. Islamov

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22743951>

Qabul qilindi: 6-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 13-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 14-sentabr 2026-yil

Dolzarbli. So'nggi yillarda fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlariga sifatsiz tibbiy yordam bo'yicha shikoyatlari soni ortib bormoqda. Tibbiy amaliyotda salbiy oqibatlarining rivojlanishiga ham obyektiv, ham subyektiv omillar hissa qo'shadi.

Tadqiqotning maqsadi sud-tibbiy xizmati materiallari asosida turli xil mutaxassislar orasida tibbiy yordamdagi nuqsonlarning mohiyatini aniqlash edi.

Tadqiqot materiallari va usullari: Respublika sud-tibbiy ekspertizasi ilmiy-amaliy markazida tibbiyot xodimlarining kasbiy huquqbuzarliklari bo'yicha o'tkazilgan komission sud-tibbiy ekspertiza xulosalarining retrospektiv tahlili o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar bo'yicha 58 ta ekspertiza xulosalari o'rganildi, ulardan 38 tasida (65,5%) tibbiy yordamdagi nuqsonlar aniqlandi. Mutaxassislik bo'yicha eng ko'p uchraydiganlari akusher-ginekologlar 16 ta holat (42,1%), jarrohlar va travmatologlar har biri 4 tadan (10,5%), pediatriklar, terapevtlar va LOR mutaxassislari har biri 3 tadan (7,9%), anesteziolog-reanimatologlar 2 ta (5,3%), neyroxirurglar, onkologlar va toksikologlar har biri 1 tadan (2,6%) bilan bog'liq edi. Mohiyati bo'yicha eng keng tarqalganlari: asosiy patologiyani 10 ta holat (26,3%) va uning asoratlarini 2 ta holat (5,3%) ahiqlamaslik, kech kasalxonaga yotqizish 3 ta holat (7,9%), shuningdek, tibbiy muolajalarni tayinlash va bajarishdagi xatolar 14 ta holat (36,8%), transport qoidalarini buzish va boshqalar har biri 1 tadan (2,6%). Buning sabablari orasida subyektiv sabablar 28 (73,7%), jumladan, bemorga beparvo munosabatda bo'lish 24 (85,7%), bemorni to'liq tekshirmaslik 4 (14,3%), shuningdek, shifokorga kech murojaat qilish 3 (7,9%) va boshqa 7 (18,4%) aniq ustunlik qiladi. Kasalxonaga yotqizishdan oldingi bosqichda 3 (7,9%), shu jumladan qishloq vrachlik punktida, tuman poliklinikasida va uyda 1 (2,6%); kasalxona bosqichida 35 (92,1%), shu jumladan tuman tibbiyot birlashmasi va tug'ruq kompleksida 25 (65,8%), viloyat tko'p tarmoqli ibbiyot birlashmasi 9 (23,7%) va xususiy muassasalarida 1 (2,6%). Natijada, ular o'limga 26 (68,4%), nogironlikning rivojlanishiga 3 (7,9%) olib kelishdi va oqibatga sezilarli ta'sir ko'rsatishmadi 9 (23,7%).

Xulosa. Shunday qilib, sud-tibbiy xizmati materiallariga ko'ra, tibbiy yordam ko'rsatishdagi nuqsonlar ko'pincha akusher-ginekologlar, shuningdek, jarrohlar va travmatologlarning faoliyatida aniqlangan. Mohiyati bo'yicha diagnostika va davolashdagi nuqsonlar asosan sub'ektiv sabablardan kelib chiqqan, hamda ular kasalxonaga yotqizish bosqichida ko'proq uchragan va oxir-oqibatda o'lim va nogironlikka olib kelishgan.